

OYKONIMLAR XUSUSIDA

Sotiboldiyev Dilhayot

Qo'qon DPI O'zbek tili va adabiyoti
fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oykonimlar haqida hamda ko'y so'zining izohlari haqidagi mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Mahallun, "ko'y", ma'muriy birlik, Baqachorsu, Yalang'och ota, xonaqoh, maqbara, laqab.

Inson tavallud topgan yurt, mahalla, ko'cha bu so'zlarning barchasida – Vatan degan so'z o'z tajassumini topadi. Mahalla so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati" da (arabcha) "Shaharning bir necha ko'chani o'z ichiga olgan bir bo'lagi va uning aholisi"¹, deb izohlanadi. Bu atama arabcha "Mahallun" – "o'rin-joy" so'zidan olingan. O'lkamizga arab tili kirib kelmasdan avval ham mahallalar mavjud edi. Bu ma'muriy birlik qadimgi so'g'd va farg'oniy tillarida "ko'y" deb nomlangan. "Ko'y"ning, ya'ni mahallaning bir qismini "ko'y" atamasiga -cha kichraytirish qo'shimchasini qo'shib, "ko'ycha"- kichkina ko'y deb ataganlar. "Ko'ycha" shakli talaffuzda ko'cha shakliga kelib qolgan². Arab tilidagi mahalla atamasi ko'y so'zini siqib chiqargan, lekin odamlar xotirasida bu so'z saqlanib qolgan. Ko'cha atamasi saqlangan, biroq hozir ham "mahalla-ko'y", "ko'cha-ko'yda" kabi birliklarni ko'p qo'llaymiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "ko'y" so'zining 3 xil ma'nosi izohlangan³.

Ko'y 1. (esk) Ko'cha, yo'l. *Yusufbek xoji to Eskijo'vaga yetguncha o'zining yuqoridagi so'zini ko'y, guzar xalqiga takrorlab kelmoqda edi. (A.Qodiriy).*

Ko'y 2. (o'p. yoki j.k. f-da) *Biror narsa dardi, savdosi, harakati. Do'smat tirikchilik ko'yiga tushdi. (P.Tursun).*

Ko'y 3. (biror aniqllovchi so'z bilan) *Ahvol, holat. Elmurod shu ko'yi yana bir-muncha yurgach to'xtadi-da, yo'l chetidagi bir toshga o'tirdi. (P.Tursun).*

Qo'qon xonligi davrida shahar 12 ta ma'muriy birlik – aminlikka bo'lingan. Har birining tarkibida o'rta hisobda 4 tadan 8 tagacha mahalla mavjud bo'lgan, mustamlaka davrida aminlik tugatilib, 4 dahaga bo'lingan.

XIX asr ma'lumotlariga ko'ra Qo'qonda 240dan ortiq mahalla bo'lgan, XX asrda mahallalar yiriklashtirib yuborilgan. Hozirgi kunda Qo'qon shahrida 65 ta MFY bo'lib, ularning har birining tarkibiga 10-12 ta ko'chalar kiritilgan.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Москва" 1980. 1-том, 457-бет.

² Муҳаммад Яхёҳон Дадабоев. Хўқанди латиф маҳаллалари ва кўчаларининг номланиш тарихи. "Фарғона" нашриёти, 2007. 3-бет.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Москва" 1980. 1-том, 412-бет.

“Yalang‘och ota” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga 12 ko‘cha kiritilgan. “Yalang‘och ota” toponimi etimologiyasi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Xalq orasida “Yalang‘och ota” laqabi bilan mashhur bo‘lgan Zuhridin Eshon binni Muhyiddin Eshon binni Nuriddin Eshonning nasl-nasabi xoja Ahmad Yassaviyga boradi. Zuhridin Eshon Jome’ madrasasida biroz o‘qib, tasavvuf tariqatiga kirib, o‘qishni tark etishadi. Tasavvufning eng tarkidunyochi suluki – Yalang‘och sulukiga kiradilar. Yalang‘och suluki Odam Ato davri sharoitida yashashga, har qanday mulk, oila, bu dunyo ne‘matlaridan voz kechishga chaqirar edi. U kishi suluk ta’limotiga amal qilib, barcha meros qolgan mulklaridan voz kechgan ekanlar. Yalang‘och ota 1877-1878 yillarda vafot etib, o‘zlarining soy bo‘yidagi xonaqohlariga dafn etilganlar. Xonaqoh va maqbara keyinchalik mahallaga nom bo‘lib qolgan. Bu ko‘cha mahalla markazidan, Yalang‘och ota maqbaralaridan soy bo‘ylab shimolga davom etadi. Sovetlar davrida bu ko‘cha “Paxta” deb nomlangan edi, keyinchalik tarixiy nom tiklandi⁴.

Shu mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli yana bir ko‘cha Qo‘qon adabiy muhitining davomchilaridan biri bo‘lgan mavlono Charxiy nomi bilan ataladi. Charxiy “Tarjimai hol”ida “Men Asqarali Charxiy 1900 yil bahorida Qo‘qon shahrining Sarbahodir mahallasida to‘quvchi kosib Hamroali To‘xtaovun o‘g‘li oilasida tug‘ildim... Onamdan shoirlikni, otamdan esa husnixatni o‘rgandim”⁵, - deb yozadi.

“Tazkirai Qayyumiy” (III) da Charxiy alohida ehtirom bilan qayd etiladi. “Zamonamizdagi shoirlardin otoqli va mashhuri mavlono Charxiydir. Bu kishi Xo‘qand shahrining sharqi janubiy tomoni bo‘lmish Gulxaniy va Mahzunalar tug‘ulib o‘smish... Sar botur nomli mahallada 1900 yilda shohi, beqasam kiyimliklar to‘quvchi kosib oilasida dunyoga kelmishdir. Usuli jadid maktabida G‘alchasoy mahallada o‘qub xat-savod chiqarmishdir. Madrasai Davronbegida, Sultonmurodbek madrasasida ilmi sarf, nahv, lug‘ati arabiydan akmal tahsil etmish...”⁶ Ushbu kitobda Aziziy taxallusi bilan ijod qilgan atoqli olim, akademik Aziz Qayumovning “She’riy ijodiga rahbar ustoz, domulla Asg‘arali Charxiy(dur)”⁷ ekanligi alohida iftixor bilan ta’kidlanadi.

“Domla Charxiy Muqimiy hujrasini ochib o‘tirardilar. Kichkinagina, pastak, ko‘rimsiz, qorong‘u hujra,... Asqarali Charxiy bu manzilda Muqimiy yashagan umrdan ham uzoqroq turdi. Shu hujraga... do‘stlarim bilan tez-tez qatnab, yashashdan murod ne ekanini anglaganman. Goh Charxiy, goh Po‘latjon domullodan eshitganlarim xuddi hozir eshitganday yodimda turibdi. Bu yerda hamisha kitoblarda, darsliklarda yo‘q shoirlardan, ular haqidagi haqiqatlardan xabar topar edik”⁸, - deb xotirlagan edi marhum shoirimiz Yo‘ldosh Sulaymon.

Asqarali Charxiy o‘z davrining yetuk bilimdonlaridan bo‘lgan. “Boshlang‘ich

⁴ Мухаммад Яхёхон Дадабоев. Хўканди латиф маҳаллалари ва кўчаларининг номланиш тарихи. “Фарғона” нашриёти, 2007. 20-бет.

⁵ Чархий. Шеърлар. “Тошкент”бадий адабиёт нашри, 1966, 5-бет.

⁶ Пўлотжон Домулла Қайюмов.Тазкираи Қайюмий (III), 639-бет.

⁷ Пўлотжон Домулла Қайюмов.Тазкираи Қайюмий (III), 664-бет.

⁸ Йўлдош Сулаймон. Биз билган ва билмаган Чархий (очерк). “Халқ сўзи” газетаси.2000, 20 июль

maktabdan so‘ng ta‘limni Sultonmurodbek madrasasida davom ettirgan Asqarali bu yerda diniy va dunyoviy ilmlarni o‘rgandi, arab, fors, urdu tillarini mukammal egalladi, xattotlik sir-asrorlaridan boxabar bo‘ldi... nazm bo‘stonida Fuzuliy, Muqimiy, Furqat, Zavqiylarga ergashgan Charxiy lirik va hajviy she‘rlari bilan tez orada mashhur bo‘lib ketdi. 1938 yildan keyin Navoiy yubiley komitetida ilmiy xodim, Qo‘qon teatrida adabiy emakdosh, so‘ng umrining oxirlarigacha Muqimiy hujra-muzeyi rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatdi”⁹.

Asqarali Charxiyning xizmatlari e‘tirof etilib, shahardagi katta ko‘chalardan biriga u kishining nomi berilgan.

Qo‘qonda “Baqachorsu” nomli oykonim bor, shaharda garchi zardo‘shiylikka oid moddiy madaniyat yodgorliklari topilmagan bo‘lsa-da, joy nomlarida bu e‘tiqod bilan bog‘liq holatlar uchraydi. Shaharning janubiy qismida qadim o‘tmishda Bixor Chorsu degan joy bo‘lgan. Bixor – ibodatxona, chorsu – to‘rt tomonga yo‘l ketgan katta maydon yohud to‘rt tomoni bozor bo‘lgan maydon, binobarin, Bixor Chorsu ibodatxonasi bor maydon deganidir. Vaqtlar o‘tishi bilan “Bixor Chorsu” atamasi talaffuzda “Baqachorsu” shakliga kelib qolgan¹⁰. Shaharning shimoli-sharqiy tomonida “Navbahor” mavzesi joylashgan. Bir vaqtlar bu yerga yangi ibodatxona qurilgan uni Navbixor – Yangi ibodatxona deb nomlangan, vaqtlar o‘tib talaffuzda bu so‘z ham o‘zgarishga uchrab “Navbahor” ko‘rinishiga kelib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, joy nomlari o‘tmishdan so‘zlaydi, ma‘lum davrlarda xalqning qadim diniy e‘tiqodi, ajdodlarining kasb-kori, manzilning geografik joylashuvi va hokazolar haqida ma‘lumotlarni o‘zida saqlaydi, uni o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish o‘tmish va kelajakni bog‘lovchi vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Йўлдош Сулаймон. Биз билган ва билмаган Чархий (очерк). “Халқ сўзи” газетаси.2000, 20 июль
2. Муҳаммад Яҳёхон Дадабоев. Хўқанди латиф маҳаллалари ва кўчаларининг номланиш тарихи. “Фарғона” нашриёти, 2007.
3. Муҳаммад Яҳёхон Хўқандий. Хўқанди латиф манокіби. “Маввороуннаҳр” нашриёти, Тошкент. 2018.
4. Пўлотжон Домулла Қайюмов.Тазкираи Қайюмий (III).
5. Р.Тожибоев. Яхшиликни куйлаган шоир. Қўқон адабий муҳити: кеча ва бугун. Муқимий, Фурқат, Увайсий, Ҳазиний таваллудларига бағишланган Республика илмий-амалий коси бор майдон нференцияси. Қўқон-2010.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Москва” 1980. 1-том.
7. Чархий. Шеърлар. “Тошкент”бадий адабиёт нашри, 1966..

⁹ Р.Тожибоев. Яхшиликни куйлаган шоир. Қўқон адабий муҳити: кеча ва бугун. Муқимий, Фурқат, Увайсий, Ҳазиний таваллудларига бағишланган Республика илмий-амалий коси бор майдон нференцияси. Қўқон-2010. 39-бет

¹⁰ Муҳаммад Яҳёхон Хўқандий. Хўқанди латиф манокіби. “Маввороуннаҳр” нашриёти, Тошкент. 2018, 27-бет.